

O'zbekiston-Qatar hamkorligini rivojlantirishga qaratilgan salmoqli hujjatlar to'plami qabul qilindi




Oliy darajadagi muzokaralar yakunlangach, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy huzurida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan 15 ta ikki tomonlama hujjatni imzolash marosimi bo'lib o'tdi.

Jumladan, quyidagilar qabul qilindi:

- Investitsiyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risida hukumatlararo bitim;
- Ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish hamda daromad va mulk soliqlarini to'lashdan bosh tortishni bartaraf qilish to'g'risida hukumatlararo bitim;
- Bojxona ishlarida o'zaro ko'mak ko'rsatish to'g'risida hukumatlararo bitim;
- Mehnat munosabatlari sohasida hamkorlik to'g'risida hukumatlararo bitim;
- Diplomatik pasport egalarini viza talablaridan ozod etish to'g'risida hukumatlararo bitim;
- Oliy ta'lim va ilmiy tadqiqotlar sohasida hamkorlik to'g'risida hukumatlararo memorandum;
- Madaniyat sohasida hamkorlik to'g'risida hukumatlararo memorandum;
- Savdo sohasida hamkorlik to'g'risida memorandum;
- Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasida hamkorlik to'g'risida memorandum;
- O'simliklar karantini va himoyasi sohasida hamkorlik to'g'risida memorandum;
- Sport va yoshlar ishlari sohasida hamkorlik to'g'risida memorandum;

- Toshkent va Doxa shaharlari o'rtasida hamkorlik to'g'risida memorandum.

Shuningdek, tashqi ishlar va adliya vazirliklari o'rtasida 2023-2025-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturlari hamda Ustuvor investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun qo'shma platforma yaratish to'g'risida kelishuv imzolandi.



Manba